O.A.RO‘ZIYEV

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI HUZURIDAGI

AFG‘ONISTON FUQAROLARINI O‘QITISH TA’LIM MARKAZI



ZIYO MASKANI

Termiz-2021

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI HUZURIDAGI

AFG‘ONISTON FUQAROLARINI O‘QITISH TA’LIM MARKAZI

ZIYO MASKANI

Termiz -2021

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI HUZURIDAGI AFG‘ONISTON FUQAROLARINI O‘QITISH TA’LIM MARKAZI HAQIDA

Mustaqillik tufayli O‘zbekiston Respublikasida erkin, huquqiy demokratik davlat barpo etilayotganligi hamda dunyo hamjamiyatida mamlakatimizning xorijiy mamlakatlar ,ayniqsa, qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalari yanada mustahkamlanayotganligi hammani quvontiradi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyovning “Men qat’iy aminman: afg‘on xalqida o‘z farzandlari va kelajak avlodlarning baxt-saodati yo‘lida yangi, tinch hayotni boshlash va barpo etish uchun kuch-g‘ayrat, donishmandlik, mardlik va matonat yetarli” degan purma’no fikrlari ayni haqiqatdir. Bizga ma’lumki qo‘shni Afg‘oniston Islom Respublikasidagi kelajak avlod 40 yildan ortiq urush alangasida voyaga yetib kelmoqda. Ushbu mamlakatda tinchlikni saqlash maqsadida Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan 2017 yil 26-27 mart kunlari Toshkent shahrida “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning o‘tkazilishi ham bejizga emas.

Barchamizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 10 sentabr kuni Ostonada Islom hamkorlik tashkiloti Sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi va Afg‘oniston Islom Respublikasi davlat rahbarlari orasida bo‘lib o‘tgan muzokaralar davomida o‘zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadida Termiz tumanining Afg‘oniston bilan chegara hududida Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitishga mo‘ljallangan o‘quv markazini tashkil etish rejalashtirilgan edi.

Mazkur kelishuv ijrosi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 911-son qarori bilan ushbu markaz tashkil etildi.

Markaz binosi 2005-yilda qurilgan bo‘lib, umumiy yer maydoni 6,5 ga, o‘quv binosi 3,5 ga yer maydonidan iborat bo‘lib, unda 750 o‘rinli o‘quv binosi, 320 o‘rinli qishki va yozgi oshxonalar, nonvoyxona, 420 o‘rinli talabalar turar joylari va barcha sport turlariga mo‘ljallangan ochiq va yopiq o‘yingohlar mavjud. Shuningdek, 30 o‘rinli 20 ta, 60 o‘rinlik 9 ta o‘quv xonalari, 200 o‘rinli faollar zali, 42 o‘rinli videokonferensiya xonasi, 3 ta 18 o‘rinli informatika xonasi, 24 o‘rinli fizika va ximiya, transport labaratoriya xonalari, 20 o‘rinli lingafon xonasi va 80 o‘ringa mo‘ljallangan kutubxona, hammom, kir yuvish binosi, 6 o‘rinli 2 ta tashqi hojatxona, o‘quv-laborotoriya binosi, 2-NO‘P (nazorat o‘tkazish punkti) qurildi.

Ushbu o‘quv xonalar va oshxonalar, hamda sport zallari zamonaviy jihoz va sport anjomlari bilan ta’minlangan. Markaz binolarining isitish tizimi ham to‘liq qayta ta’mirlandi. Markazning tegishli bino va inshootlarini hamda talabalar shaharchasini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha buyurtmachi Surxondaryo viloyati hokimligining «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi, bosh loyihachi tashkilot «Uyjoysanoatsuv-qurilish» xususiy loyiha korxonasi loyihasiga asosan “Santexmontaj” xususiy korxonasi bosh pudrat tashkiloti tomonidan qurilish va ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.

Markazda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida qabul qilingan normalarga asosan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv reja va dasturlarga muvofiq kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha o‘qish tashlil etilgan.

Afg‘oniston tomoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda markazda kadrlarni oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlari asosida o‘qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha qisqartirilgan ta’lim muddatlari bo‘yicha o‘quv rejalari modullashtirilgan shaklda ishlab chiqilgan. Vazirlik huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tasdiqlangan.

MARKAZNING XALQARO HAMKORLIGI

Barchamizga ma’lumki, yaqin yillargacha jahonda Afg‘on fuqarolari uchun maxsus oliy ta’lim muassasasi yo‘q edi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish uchun ta’lim markazining tashkil etilishi jahonning ko‘plab davlatlarining mamlakatimizdagi elchixonalar, oliy ta’lim muassasalari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, jamg‘arma va fondlarining qiziqishi ortishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun turli tashkilotlar markaz bilan ilmiy-amaliy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ta’lim sohalarini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik ishlarini olib bormoqda.

Jumladan, bugungi kunda dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ya’ni BMT, YEIHT hamda AQSh, Rossiya, Germaniya, Slovakiya, Xitoy XR, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Shvesiya qirolligi, Belgiya qiroligi Yaponiya, Hindiston kabi yirik davlatlar bilan aloqalar o‘rnatilmoqda.

Markaz USAID, Konrad Adinauer va Fridrix Ebert, KOICA, JICA, GIZ tashkilot va fondlari bilan qo‘shma loyihalarda ishtirok etib, markazning moddiy texnika bazasini boyitish hamda xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali ta’lim jarayonining sifatini yanada oshirish, davlatlar o‘rtasida jahon andozalariga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan loyihalarni tadbiq etish bo‘yicha o‘z taklif va mulohazalari bilan ishtirok etishmoqda.

2020-yil 15- oktabr kuni Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi hamda AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) vakillari bilan o‘zaro hamkorlik masalasi yuzasidan bo‘lib o‘tgan video konferensiya bo’lib o’tdi.

Video konfenrensiyada AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining tadbirkorlik va biznes muhitini rivojlantirish loyihasi **(FGI)** boshlig‘i **Filip Stoyanovich**, loyiha boshqaruvchisi **Azamjon Babaxodjaev**, sherikchilik bo‘yicha mutaxassis **Sanjarbek Toshtemirov**, CTJ loyihasi boshqaruvchisi **Alfiya Musina** hamda Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi rahbariyati ishtirok etishdi.

Videokonfenrensiya davomida AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining tadbirkorlik va biznes muhitini rivojlantirish loyihasi (FGI) boshlig‘i Filip Stoyanovich, Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining taklifiga binoan Afg‘oniston fuqarolari, markaz xodim va talabalari, Afg‘onistonlik yoshlar hamda ayol hunarmandlar uchun axborot texnologiyalari (IT), ingliz tili, yengil sanoat,

hunarmandchilik, ichki turizm kabi yo‘nalishlarda qisqa muddatli kurslar tashkil etish haqidagi taklifni qo‘llab-quvvatlashini bildirib o‘tdi.

CTJ loyihasi boshqaruvchisi Alfiya Musina o‘z ma’ruzasida **USAID** tomonidan markaz bilan hamkorlikda amaliy ishlar faoliyatini amalga oshirish yuzasidan bir nechta yo‘nalishda qisqa muddatli kurs va seminar treninglar loyihalari ishlab chiqish uchun tayyorligi haqida aytib o‘tdi.

Jumladan,

1. Ingliz tili kurslari.
2. Axborot texnologiyalari (Dasturlash)
3. Ichki turizm
4. Yengil sanoat
5. Hunarmandchilik kabi kurslar tashkil etishda amaliy yordam beramiz deya ta’kidladi.

Bundan tashqari, Afg‘oniston tadbirkorlari uchun markazda Afg‘onistonlik ayol hunarmandlarining o‘z mahsulotlarini sotish bo‘yicha o‘zaro uchrashuvlar (vebinar) tashkil etish.

Shuningdek, **USAID** tomonidan O‘zbekiston va Afg‘oniston savdo iqtisodiy aloqalarini izchil rivojlantirish maqsadida, ikki davlat tadbirkorlari uchun markazda seminar-treninglar loyihalarini tashkil etishligi haqida ta’kidlab o‘tdi.





2020 yilning 23 oktyabr kuni AQSh Xalqaro ta’lim kengashining O’zbekistondagi direktori Villiyam Oroark va AQSh Xalqaro ta’lim kengashining vakili Shaxnoza Suyarovalar Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurishdi.

Uchrashuv davomida AQSh Xalqaro ta’lim kengashining O’zbekistondagi direktori Villiyam Oroark Markazning O’zbekiston va Afg’oniston Respublikalari o’rtasida turli sohalarda hamkorlikni amalga oshirishda asosiy muassasalardan biri ekanligini ta`kidladi. Shuningdek AQSh Xalqaro ta’lim kengashining bundan keyingi faoliyatida markaz bilan hamkorlikda yangi loyihalar bo’yicha o’z takliflarni bildirdi. Bildirgan takliflarda asosan Afg’oniston Islom Respublikasidan tashrif buyurgan talabalarga iqtisodiy, turizim, kompiyuter texnologiyalar va ingliz tili sohasidagi bilimlarni oshirish uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi lozimligi ta`kidlandi.





2020 yil 1-noyabr kuni Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida ta'lm olayotgan talabalar “Hayraton” chegara-bojxona postidan kutib olindi. Ushbu tadbirda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari O‘.Salomov, Surxondaryo viloyat hokimining o’rinbosari Ch.Begimqulov, Afg‘oniston Islom Respublikasining Termiz shahridagi konsullik vakili Muxtor Azimiy hamda Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi jamoasi ishtirok etdilar.





2020 yil 18 noyabr kuni AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining tad-birkorlik va biznesni rivojlantirish bo‘yicha mutaxassis Sanjarbek Toshtemirov, AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining vakili Oybek Boltaev Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyirishdi.

Uchrashuv davomida AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining sherikchilik bo‘yicha mutaxassis Sanjarbek Toshtemirov Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining taklifiga binoan Afg‘oniston fuqarolari, markaz hodim va talabalari, afg‘onistonlik yoshlar hamda ayol hunarmandlar uchun axborot texnologiyalari (IT), ingliz tili, yengil sanoat kabi yo‘nalishlarda qisqa 2 hamda 4 oylik kurslar tashkil etish haqidagi taklifni qo‘llab-quvvatlashini bildirib o‘tdi.

AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining vakili Oybek Boltaev o‘z ma’ruzasida **USAID** tomonidan markaz bilan hamkorlikda amaliy ishlar faoliyatini amalga oshirish yuzasidan bir necha yo‘nalishlar bo`yicha qisqa 2-4 oylik qisqa muddatli kurs va seminar- treninglar o`tkazish uchun tayyorligi haqida to`xtalib o`tdi.

Jumladan,

axborot texnologiyalari (Dasturlash),Ingliz tili kurslari,Yengil sanoat kabi kurslar tashkil etishda amaliy yordam beramiz deya ta’kidladi.





2020 yil 20 noyabr kuni Germaniya Federativ Respublikasining “Management helth GmbH” konsalting kompaniyasi ekspertlari - doktor Mixael Nixsial va loyiha rahbari Korneliya Bekker hamda ushbu kompaniyaning boshqa vakillari Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdilar.

Uchrashuv davomida doktor Mixael Nixsial tashrifning asosiy maqsadi sifatida Surxondaryo viloyati hududida o‘rta tibbiyot xodimlarini o‘qitish va malakasini oshirish ehtiyojlari, o‘quv markazi va talabalar turar joyi uchun yangi binolar qurish yoki qayta qurish, Afg‘onistonning o‘rta tibbiyot xodimlari va talabalarini o‘qitish bilan bog‘liq imkoniyatlarni o‘rganib chiqish ekanligini ta`kidladi.

Shuningdek, dr. M.Nixsial ushbu loyihani moliyalashtirish vazifasi Germaniyaning KFW federal banki va “GIZ” xalqaro tashkiloti tomonidan yuklatilganligini alohida ta’kidladi.

Shu bilan birgalikda dr. M.Nixsial ushbu loyiha asosan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lgan o‘rta bo‘g‘im tibbiyot hodimlarini o‘qitish va malakasini oshirishga yo‘naltirganligini hamda Surxondaryo viloyati AIRdan tashqari qo‘shni Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari bilan chegaradoshligini inobatga olgan holda, ushbu davlat fuqarolarini ham jalb qilish mumkinligini e’tirof etdi.

Bundan tashqari xorijiy mehmon markazdagi talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlardan kelib chiqib, ushbu loyihani ta’lim markazi bazasida amalga oshirish ehtimoli mavjudligini ham alohida aytib o‘tdi.

Olib borilgan muzokaralar davomida, kelgusida tashkil qilinishi rejalashtirilayotgan o‘quv markazi, Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi bilan hamkorlik qilishi davomida, markazni tibbiyot sohasi uchun zarur bo‘lgan o‘quv labaratoriyalarini yaratish hamda tibbiyot jihozlari bilan ta’minlanish imkoniyatini berishi xususida ham so‘z ketdi.





2020 yil 23 noyabr kuni AIR Oliy ta’lim vazirligining birinchi o‘rinbosari Abdul Tavob Bolokarzay ,AIR Oliy ta’lim vazirligining xalqaro aloqalar bilan ishlash bo‘lim boshlig‘i Nur Muhammad Oxunzoda,AIR Oliy ta’lim vazirligining nazorat boshqarma boshlig‘i Xon Muhammad Naimi, AIR Oliy ta’lim vazirligining nazorat boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Gul Muhammad Bosil,Afg‘oniston Islom Respublikasining Termiz shahridagi konsulining 2 kotibi Muxtor Azimiylar markazga tashrif buyurdilar.





2020 yil 26 noyabr kuni Hindiston Respublikasining O‘zbekistondagi elchisi Manish Prabxat, hind madaniyati markazi direktori Chander Shekxar, mudofaa masalalari bo‘yicha harbiy attashe Nipun Anand va tarjimon Hamidova Yulduz hamda Surxondaryo viloyati hokimi o‘rinbosari Chori Begimqulovlar Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdilar. Uchrashuv davomida Manish Prabxat tashrifning asosiy maqsadi sifatida Surxondaryo viloyati hududida Hindiston hukumati ishtirokida

barpo etilayotgan va jihozlanishi rejalashtirilayotgan ijtimoiy ob'ekt (*shifoxona*) hududi bilan tanishish hamda Termiz davlat universitetida hind o'quv xonasining ochilishida ishtirok etish ekanligini aytib o`tdi.

Shuningdek, M.Prabxat Markazdagi talabalar bilan uchrashganidan so'ng, kelgusida ta'lim muassasasi hududida Hindiston o'quv xonasini tashkil etish va jihozlash, "Yer usti transportlari tizimi va ularning ekspluatatsiyasi" va tibbiyot yo'nalishlari bo'yicha darsliklar bilan ta'minlash xususida loyiha tayyorlash muhimligini ta`kidladi.





2021 yil 20 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markaziga Afg'oniston Islom Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi Ahmad Holid Elmiy tashrif buyurdi.

Markazda tahsil olayotgan 144 nafar talabalar, markaz ma'muriyati hamda professor o'qituvchilar va Afg'oniston Islom Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi favqulotda va muxtor elchisi Ahmad Holid Elmiy, elchining birinchi kotibi Navid Alizay hamda boshqa mutasaddi vakillar o'rtasida yig'ilish bo'ldi. Ahmad Holid Elmiy 144 nafar talabalarning 3 oylik stipendiya mablag'larini olib kelganligi, qolgan 9 oy uchun belgilangan stipendiya mablag'lari tez kunlarda yetkazilishini aytib o'tdi.





2021 yil 27 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Afg‘oniston fuqarolarni o‘qitish ta’lim markazida "Oliy hamshiralik ishi" mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan 18 nafar afg‘on talabalarining o‘quv jarayonining tashkiliy va texnik masalalari, shuningdek muammolari yuzasidan fikr almashish masalasi yuzasidan videokonferensiya bo‘lib o‘tdi. Videokonfenrensiyada O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri o‘rinbosari U.Sh. Begimkulov, Oliy ta’lim standartlari va normativ ta’minoti boshqarma boshlig‘i S.S.Niyazbekov, Afg‘oniston Islom Respublikasining O‘zbekistondagi elchisi Ahmad Holid Elmi, Afg‘oniston Islom Respublikasi Oliy ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari Abdul Tavob Bolokarzay, AIR Oliy ta’lim vazirligining xalqaro aloqalar boshqarmasi boshlig‘i Nur Muhammad Oxunzoda, Toshkent tibbiyot akademiyasi o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori A.Boymuradovlar ishtirok etishdi.

2020 yil 11 fevral kuni AQShning O’zbekistondagi elchixonasi Jamoatchilik bilan ishlash bo’yicha bo’limi boshlig’i A.L.Sallivan, AQShning ingliz tilida so'zlashuvchi Millatlar dasturi murabbiyi Kennet Myers, AQShning O’zbekistondagi elchixonasi Kichik grantlar bo‘yicha koordinatori Dilbar Sulaymonova, ingiliz til o’qtuvchisi K.Kouen markazga tashrif buyurdilar.

Tashrif davomida A.Sallivan Markaz ma’muriyatiga o‘z minnatdorchiligini bildirib, tashrifning maqsadi xususida so‘z yuritdi.

Unga ko‘ra AQShning O‘zbekistondagi elchixonasi tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi va Amerika Qo‘shma Shtatlarining iqtisodiyot va madaniy-ma’rifiy sohadagi munosabatlarni yanada mustahkamlash hamda viloyatning Termiz tumanida faoliyat ko‘rsatayotgan Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida tahsil oluvchi afg‘on yoshlarini qo‘llab-quvvatlash, ya’ni ularning ingliz tilini o‘rganishlarida amaliy yordam ko‘rsatish ekanligi ta’kidlab o‘tildi.

Shu munosabat bilan, Termiz davlat universitetidagi talabalarga tahsil berish maqsadida kelgan ingliz tili mutaxassisi Kristofer Kouni xar xaftaning bir kunini afg‘on yoshlariga ajratishi, ular uchun ingliz tili kurslari va kichik biznes bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tishi rejalashtirilayotganligi ma’lum qilindi.

Shundan so‘ng, Markaz rahbariyati tomonidan AQSh elchixonasi vakillariga quyidagi takliflar berildi:

- Markaz bazasida Amerika o‘quv auditoriyasini tashkillashtirish hamda jihozlash;
- Afg‘on yoshlarini avtomobil boshqarishga o‘rgatish kurslari uchun avtosimulyator ajratish;
- Stomatologiya kabinetini tashkil etish;
- AQSh nashriyotidagi o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash.

O‘z navbatida A.Sallivan ushbu takliflarni AQShning O‘zbekistondagi elchisi bilan muhokama qilishi va natijalari hamda kelgusidagi rejalar xususida tegishli ravishda murojaat qilishini aytib o‘tdi.





2021-yil 22 fevral kuni Afg‘oniston fuqarolarni o‘qitish ta’lim markazi hamda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatining O‘zbekistondagi vakolatxonasi vakillari bilan onlayn videokonferensiya bo‘lib o‘tdi.

Videokonferensiyada markaz rahbariyati, Germaniya xalqaro jamiyati (“GIZ”)ning “Markaziy Osiyoda xuquqiy davlatchilikni ilgari surish” mintaqaviy dasturi direktori janob Yorg Pudelka, (“GIZ”)ning O‘zbekistondagi huquqiy loyihalari rahbari Kristine Kore-Perkone, loyiha koordinatori Nazarov Sanjar hamda (“GIZ”)ning huquqiy loyihalarni moliyalashtirish bo‘limi mutaxassisi Dinara Mustaevalar ishtirok etdilar.

Videokonferensiya davomida Germaniya xalqaro jamiyati (“GIZ”)ning “Markaziy Osiyoda xuquqiy davlatchilikni ilgari surish” mintaqaviy dasturi direktori janob Yorg Pudelka huquqiy yo‘nalishlarda kelgusida hamkorlik loyihalari jumladan, ma’muriy huquq yo‘nalishida Afg‘oniston hamda O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan advokatlar, sudyalar, prokuratura, adliya hamda sohada faoliyat yuritib kelayotgan xodimlarni qisqa muddatli kurslar bo‘yicha o‘qitish, ularni malaka oshirish kurslariga jalb qilish shuningdek, Afg‘oniston Islom Respublikasidan huquqshunoslik yo‘nalishini yanada rivojlantirish maqsadida, markazda “Huquqshunoslik” yo‘nalishining bakalavr yoki magistratura ta’limi bo‘yicha o‘qitish taklifini berdi.

Joriy yilning 25- fevral kuni AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning O‘zbekistondagi missiyasi iqtisodiy rivojlanish bo‘limi boshlig‘i Skott Xedland, Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning O‘zbekistondagi direktori Alfiya Musina, AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning kelajakdagi o'sish tashabbusining tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish bo‘yicha O'zbekistondagi menejeri Azamdjon Babaxodjaev, AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligining tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish bo‘yicha mutaxassis Sanjarbek Toshtemirov Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurishdi.

Mehmonlar Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) va markazimiz hamkorligida Axborot texnologiyalari (Dasturlash)yo‘nalishi bo`yicha markazda 4 oylik qisqa

muddatli kurs va seminar treninglar o`tkazish uchun ajratilgan hamkorlik xonasi ochilish marosimida ishtirok etishdi.





2021 yilning 1 mart kuni AQShning Xalqaro ta’lim Kengashining O‘zbekistondagi vakolatxonasi direktori Villiyam Oroark va Vakolatxona xodimlari Bahrom To'ychiyev, Muzaffar Nozimxo'jayev Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurishdi. Mehmonlar o‘z tashriflarini Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining hozirgi holati, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar va kelgusida hamkorlik doirasida amalga oshiriladigan loyihalar xususida to‘xtalib o‘tildi.

Jumladan, markaz va AQShning O‘zbekistondagi elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim Kengashining O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda ingliz tili savodxonligi, menejment, xususiy biznes va tadbirkorlik sohasida bilimlarni oshirish kabi yo‘nalishlarda qisqa muddatli kurslarni amalga oshirish mexanizmlari xususida muzokaralar olib borildi.

AQSh Xalqaro ta’lim Kengashining O‘zbekistondagi vakolatxonasi direktori Villiyam Oroark qabul uchun minnatdorchilik bildirib, markazning O‘zbekiston va Afg‘oniston Respublikalari o‘rtasida turli sohalarda hamkorlikni amalga oshirishda asosiy muassasalardan biri ekanligini ta’kidlab o‘tdi.

Shuningdek, AQSh Xalqaro ta’lim Kengashining markaz bilan hamkorlikda yangi loyihalar bo‘yicha o‘z takliflarni bildirdi. Bildirgan takliflarga asosan Termiz davlat universiteti, Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi, Afg‘oniston Islom Respublikasidagi Balx unversiteti hamda Mozori sharifdagi unversitetlarda tahsil olayotgan talabalarni tanlov asosida saralab olish, orqali tashrif buyurgan talabalarga ingliz tili hamda tadbirkorlik sohasidagi bilimlarni oshirish uchun qisqa muddatli (har bir guruhda 70 nafardan bosqichma-bosqich 6 ta guruh jami 400 nafar tinglovchilar uchun 3-4 xaftalik) kurslar tashkil etib, ushbu kurslarda O‘zbekistonlik va Afg‘onistonlik talabalar 50+50 bo‘lishligini aytib o‘tdi.

Jumladan, Villiyam Oroark AIRdan tashrif buyuradigan tinglovchilarning vizalari rasmiylashtirilishi, o‘qish va boshqa (darsliklar, yashash joylari, ovqatlanish, ishlab chiqarish korxonalari hamda Respublika bo‘ylab turli ma’naviy-ma’rifiy va madaniy sayohat va ziyoratlar) xarajatlar to‘liq AQSh Xalqaro ta’lim kengashi tomonidan qoplanishini bildirib o‘tdi.





2021 yilning 08 aprel kuni Janubiy Koreya Respublikasining KOICA xalqaro tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasi volontyorlar dasturi bo‘yicha menedjer Pak Xemin va ushbu tashkilot xodimi Achilova Yulduz Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyirishdi. Mehmonlar o‘z tashriflarini Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining hozirgi holati, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar va kelajakdagi imkoniyatlari bilan tanishishdan boshlashdi.

Shundan so‘ng, mehmonlar Markaz ma’muriyati bilan birgalikda rasmiy uchrashuv o‘tkazdilar.

Uchrashuv davomida KOICA va Markaz o‘rtasida imzolangan anglashuv memorandumi doirasida o‘tkazilishi lozim bo‘lgan o‘quv kurslari karantin munosabati bilan ma’lum muddatga to‘xtatilganligi bois, kelgusida ushbu rejalarni amalga oshirish yuzasidan quyidagilar kelishib olindi. Xususan,

- Axborot texnologiyalari yo‘nalishida markazda 2 yillik muddatli kurs va onlayn seminar -treninglar o`tkazish;
- Koreys tili kurslarini tashkil etish;
- Koreya xonasini tashkillashtirish.

O‘z o‘rnida markaz rahbariyati yuqoridagi loyihalarni amalga oshirish uchun markazda barcha sharoitlar yaratilganligi hamda moddiy texnik bazasi zamon talablariga javob berishi va ushbu imkoniyatlarda yanada kengroq foydalanish lozimligi haqida ta’kidlab o‘tdi.





2021 yilning 7 may kuni Germaniya Federativ Respublikasining “Management4helth GmbH” konsalting kompaniyasi rahbarining maslahatchisi Natalia Liubcenco, ushbu tashkilotning loyixa menedjeri Aybek Kudaybergenov, Germaniya Federativ Respublikasi KFW taraqqiyot bankining O‘zbekistondagi loyihalar koordinatori Nigora Karaboeva Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurishdi.

Mehmonlar o‘z tashriflarini Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining hozirgi holati, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar va kelajakdagi imkoniyatlari bilan tanishishdan boshlashdi.

Shundan so‘ng, mehmonlar Markaz ma’muriyati bilan birgalikda rasmiy uchrashuv o‘tkazdilar.

Uchrashuv davomida Natalia Liubcenco xonim tashrifning asosiy maqsadi sifatida Surxondaryo viloyati hududida o‘rta tibbiyot xodimlarini o‘qitish va malakasini oshirish ehtiyojlari, o‘quv markazi va talabalar turar joyi uchun yangi binolar qurish yoki qayta qurish, Afg‘onistonning o‘rta tibbiyot xodimlari va talabalarini o‘qitish bilan bog‘liq imkoniyatlarni o‘rganib chiqish kerak ekanligini aytdi.

Shuningdek, Natalia Liubcenco xonim ushbu loyihani moliyalashtirish vazifasi Germaning KFW federal banki va “GIZ” xalqaro tashkiloti tomonidan yuklatilganligini alohida ta’kidladi.

2021 yilning 17-18 may kunlari Markazda Germaniyaning "GIZ" xalqaro tashkiloti tomonidan tashkillashtirilgan "**Mamuriy tartib-taomillar va ma`muriy sud ishlarini yuritish** " mavzusida seminar bo‘lib o‘tdi.

Seminarda delegatsiya rahbari, GIZning O’zbekiston va Qozog`istondagi vakolatxonasi direktori **Jorg Pudelka**, GIZning **Huququqiy loyxalarning Tojikistondagi boshlig’i Volker Stampe,** GIZning Afg‘onistondagi vakili Zaki Ahmad Ayubi hamda Afg‘onistondagi sudiya va advokatlar, Surxondaryo viloyatidan bir qator sudyalar va advokatlari shuningdek Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi rahbariyati ishtirok etdilar.

Seminar O‘zbekiston hamda Afgoniston Respublikalarining sud idoralari vakillarining huquqiy savodxonligini oshirish va tajriba almashish maqsadida o‘tkazildi.

Shuningdek, Seminar so’ngida ishtirokchilar va markaz ma’muriyati bilan uchrashuv o‘tkazdilar. Markaz rahbariyati ishtirokchilarga Afg’oniston fuqarolarni o’qitish ta’lim markazi va undagi talabalar uchun yaratilgan sharoitlar haqida ma’lumot berdi. Seminar ishtirok etgan Afg’oniston Islom Respublikasi vakillari yaratilgan sharoitlar va amaliy yordam uchun markaz ma’muriyatiga minnatdorchilik bildirdilar





2021 yil 28 iyun kuni Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID), Ozbekiston IT markazi hamda Afg‘oniston fuqarolarni o‘qitish ta’lim markazi bilan hamkorlikda axborot texnologiyalari (dasturlash) yo‘nalishlari bo`yicha markazda tashkil etilgan 4 oylik qisqa muddatli kursning yakuni bo‘yicha onlayn videokonferensiya o’tkazildi videokonferensiyada markaz jamoasi, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning O‘zbekistondagi missiyasi iqtisodiy rivojlanish bo‘limi boshlig‘i Skott Xedland, Xalqaro taraqqiyot agentligining tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish bo‘yicha mutaxassis Sanjarbek Toshetmirov, Surxondaryo viloyati IT park rahbari Oybek Choriev, kurs o‘qituvchilari hamda talabalalari ishtirok etdilar.

Videokonferensiya davomida Skott Xedland Axborot texnologiyalari (dasturlash) yo‘nalishlarda kelgusida hamkorlik loyihalarini davom ettirilishini ta’kidladi hamda kurs bitiruvchilarini tabriklab, ularga kelgusidagi faoliyatlariga omad tiladi.

O‘z o‘rnida markaz rahbariyati AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning vakillariga o‘z minnatdorchiligini bildirib, bunday kurslarni ko’paytirish uchun markazda tajriba va barcha shart sharoitlar hamda zaruriy moddiy texnik bazasi mavjudligini aytib o‘tdi.

Shuningdek, markaz talabalari shunday kursni tashkillashtirganliklari uchun Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) hamda Ozbekiston IT markaziga minnatdorchilik bildirib, kursda o’rgangan bilimlarini Afg’onistonlik yoshlarga o’rgatishlarini ta’kidladilar.

Videokonferensiya so’ngida kurs davomida faol qatnashgan hamda darslarni yaxshi o’zlashtirgan talabalar

xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) hamda Ozbekiston Respublikasi IT markazi tomonidan kompyuterlar bilan taqdirlandilar.

Shuningdek, ta’lim olgan barcha talabalarga sertifikat va viloyatdagi IT markazida doimiy qo’shimcha shug’ullanishlari uchun Vaucher bilan taqdirlandilar.





Joriy yilning 8 iyul kuni Rossiya Federatsiyasining blogger muhbiri Ramiz Baxtiyarov Afg’oniston fuqarolarini o’qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdi, hamda afg’on yoshlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Tashrif chog’ida Afg’onistonlik yoshlar bilan suhbatlashdi. Yaratilgan bunday imkoniyatlardan Afg’on yoshlari mamnun ekanliklarni ta`kidlab o’tdilar.



2021 yilning 09 iyul kuni UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade, BMT Markazi Osiyo qochoqlarni himoya qilish tashkilotining rahbarining o’rinbosari Dumitru Lipkanu hamda Surxondaryo viloyati hokimligi vakillari Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdilar.

Tashrif davomida Munir Mamedzade va Dimitriy Lipkanu Markaz ma’muriyatiga o‘z minnatdorchiligini bildirdi va markaz ma’muriyatidan ta’lim

muassasasi faoliyatini rivojlantirish uchun qanday taklif va fikrlar mavjudligini so‘radilar.

Shundan so‘ng, markaz rahbariyati tomonidan UNICEF vakillariga quyidagi takliflar berildi:

- Talabalar uchun kompyuter sinfini tashkillashtirish;
- Markaz bazasida BMT xonasini tashkillashtirish hamda jihozlash;
- Afg‘on yoshlarini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash;
- Markazda mini stadion qurish.

Yig‘ilish so‘ngida xorijiy mehmonlar ushbu taklif va fikrlarni o‘rganib chiqishni va o‘zlarining rahbariyatlari bilan kelishgan holda kelgusida amaliy yordam berishini bildirdi





2021 yilning 17 iyul kuni Rossiya “Iqtisodiyot oliy maktabi”ning markaz rahbari **Bordachyev Timofey Vyacheslavovich** va Moskva davlat xalqaro aloqalar unversiteti proffessori **Sofranchuk Ivan Alekseevich**, O‘zbekistn Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktorining birinchi o‘rinbosari **Ne’matov Akrom Ilxomovich** hamda Surxondaryo viloyati hokimligi vakillari Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdilar.

Mehmonlar o‘z tashriflarini Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining hozirgi holati, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar va kelajakdagi imkoniyatlari bilan tanishishdan boshladilar.

Uchrashuv davomida markaz rahbariyati mehmonlarga tashrif uchun minnatdorchilik bildirib, bugungi kunda Markazda 186 nafar afg‘on yigit-qizlari tahsil olayotganligini ta’kidlab o‘tdi.

Yig‘ilish davomida Timofey Bordachyov va Ivan Sofranchuk markaz ma’muriyatiga o‘z minnatdorchiligini bildirdi va markaz ma’muriyatidan ta’lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish uchun qanday taklif va fikrlar mavjudligini so‘radilar.

Shundan so‘ng, Markaz rahbariyati tomonidan xorjiy mehmonlarga quyidagi takliflar berildi:

- Markaz bazasida “Rossiya” xonasini tashkillashtirish hamda jihozlash;

- Afg‘on yoshlarini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash;
- O‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida “Yer usti trnasportlari tizimi va ularning ekspluatatsiyasi” yo‘nalishida Rossiya Federesiyasida ushbu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi proffessor-o‘qituvchilarni jalb qilish;

Yig‘ilish so‘ngida xorijiy mexmonlar ushbu taklif va fikrlarni o‘rganib chiqishni va o‘zlarining rahbariyatlari bilan kelishgan holda kelgusida amaliy yordam berishini bildirdi.





Joriy yilning 22 iyul kuni Yevropa Osiyo tadqiqotlari instituti loyihalari koordinatori Alberto Turkstra hamda Surxondaryo viloyati hokimligi vakillari Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdilar.

Mehmonlar o‘z tashriflarini Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining hozirgi holati, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar va kelajakdagi imkoniyatlari bilan tanishishdan boshladilar.

Uchrashuv davomida markaz rahbariyati markazga tashrif buyurgan mehmonlarga tashrif uchun minnatdorchilik bildirib, bugungi kunda Markazda afg‘on yigit-qizlari tahsil olayotganligini ta’kidlab o‘tdi.

Markaz direktori mehmonlarni 750 o‘rinli o‘quv binosi hamda 450 o‘rinli talabalar turar joyining binosida bir vaqtning o‘zida ham o‘qish, ham yashashlari uchun barcha sharoitlar mavjudligi hamda talabalar uchun yaratilgan dam olish xonalari, ARM markazi, internet tizimi va kompyuter xonalari bilan tanishtirdi.

Mehmon kurs tinglovchilari bilan suhbatda bo’lib ularning markazda yaratilgan sharoitlardan va berilayotgan ta’limdan mamnunligini angladi.

Shuningdek tinglovchilar Respublikamizdagi yetakchi OTMlarda o’qishni davom ettirishlari,yetakchi mutaxassislar bo’lib AIRga xizmat qilishlarni ta`kidladilar.

Alberto Turkstra “DIPLOMATIC WORLD” jurnali uchun manbalar yig’ish uchun O’zbekiston bo’ylab yurganligini, chunki bu jurnalning sentyabr sonini O’zbekiston Respublikasining Mustaqiligining 30 yilligiga bag’ishlanishini, shuning uchun Afg’oniston fuqarolarini o’qitish ta’lim markazi haqida ham ko’proq ma’lumotlar yoritilish niyatidaligini bildirdi.





2021 yilning 21 avgust kuni Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Terri Xakala, YeIning O‘zbekistondagi elchisi Sharlotta Adrian, T.Xakalaning maslahatchisi Liga Yermaken, O‘zbekistn Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi vakili **Oybek Shaxabdinov** hamda Surxondaryo viloyati hokimligi vakillari Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdilar.

Yig‘ilish davomida T.Xakala talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar hozirgi zamon talabiga mos kelishi va O‘zbekiston Respublikasi hukumati, xususan, Makaz ma’muriyati tomonidan afg‘on yoshlariga berilayotgan e’tibor judayam muhimligini e’tirof etdi.

Shuningdek, Sh.Adrian o‘z nutqida YeIning Markaziy Osiyo davlatlari bo‘yicha “7 yillik dasturlash byudjeti” doirasida 3 yo‘nalishda, ya’ni:

4. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o‘rtasidagi yagona tizimli faoliyat;
5. Gender tenglik asosida, ayollarning huquqlarini himoya qilish;
6. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotganligini alohida ta’kidlab o‘tdi.





2021 yilning 1 noyabr kuni Yevropa Komissiyasi xalqaro hamkorlik bo‘yicha bosh direksiyasi (DG INTPA) ning yaqin Sharq Ko‘rfazidagi, O‘rta va Janubiy Osiyo bo‘limi rahbari Sara Rinaldi Yevropa Komissiyasining Yaqin Sharq, Fors ko‘rfazi, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarida hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha Bosh direktorligining Xalqaro ko‘mak hamkorlik bo‘yicha xodimi Titien Amati, O‘zbekistondagi Yevropa Ittifoqi delegatsiyasining siyosiy xodimi Tomas Yuet Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi elchisi Sharlotta Adrian markazga tashrif buyurdilar.
Tashrif davomida mehmonlar tomonidan Yevropa Ittifoqi tashkilotining ko‘magi va homiyligida O‘zbekiston Respublikasi ya’ni Surxondaryo viloyati hamda Termiz shahrida istiqomat qilib kelayotgan Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish loyihasi ustida ish olib borilayotganligi haqida ta’kidlab o‘tildi.
O‘z o‘rnida, Markaz mamuriyati tomonidan xorjiy mehmonlarga:

- Markaz bazasida “Yevropa Itttifoqi” xonasini tashkillashtirish hamda jihozlash;
- Afg‘on yoshlarini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash;
- Yevropa Ittifoqi hamkorligida qisqa muddatli kurslar tashkil etish kabi takliflarini bildirdi.





2021 yilning 2 noyabr kuni BMT Taraqqiyot Dasturining O‘zbekistondagi doimiy vakili Matilda Dimovska, O‘zbekistondagi BMTTDning samarali boshqaruv klasteri rahbari Kamila Muxammedxanova, O‘zbekistondagi BMTTDning integratsiyalashgan tiklanish va mahalliy rivojlanish bo‘yicha maslahatchisi Tomas Torogud,hamda Surxondaryo viloyati “Barqaror hayot” ijtimoiy-ma’rifat markazi rahbari O.Ilmuradovalar Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdilar. Shuningdek, mehmonlar tomonidan BMT hamda Yevropa Ittifoqi tashkiloti bilan hamkorlikda markaz imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish, qo‘shma loyihalar asosida kelgusida afg‘on yoshlarini yanada ko‘proq jalb qilish kabi rejalar ishlab chiqilishi haqida to‘xtalib o‘tildi.Bundan tashqari uchrashuv davomida Matilda Dimovska tomonidan BMT Taraqqiyot Dasturining Kobul shahrida joylashgan vakolatxonasiga tashrif buyurib,

markaz imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish masalasida uchrashuv o‘tkazilishi haqida ta’kidlab o‘tildi.





2021 yil 25 noyabr kuni Slovakiyaning O’zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Yan Bori rasmiy tashrif bilan Afg’oniston fuqarolarini o’qitish ta’lim markaziga tashrif buyirdi.

Markaz o’quv labaratoriyalarini yanada rivojlantirish maqsadida (9700 ming yevro) miqdoridagi to’liq jihozlarga ega bo’lgan stomatologiya xonasiga zaruriy asbob uskunalar yetkazib berildi.

Stomatologiya xonasini ochilish marosimida Slovakiya Respublikasining elchi Yan Bori bilan birgalikda Afg’oniston hukumatining Termiz shahridagi bosh konsuli Bismilloh Mangal ishtirok etishdi





2021 yilning 15 dekabr kuni Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi elchisi **Sharlotta Adrian**, UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari **Munir Mamedzade**, YeIning O‘zbekistondagi vakolatxonasi mutaxasisi **Akmal Rustamov,** O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi vakili **Rustam Nazarov** hamda Afg‘onistonning Termiz shahridagi Bosh konsulining 2 kotibi Muxtor Azimiy va ushbu BKning bo‘lim boshlig‘i Siyam Sakandarilar Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdilar.

Yig‘ilish davomida **Sh.Adrian** Yevropa Ittifoqining va UNICEF qo‘shma dasturi asosida “Afg‘onistonga gumanitar yordam ko‘rsatish” loyihasi yuzasidan 50 million yevro miqdorida pul mablag‘lari ajratilganligi, shundan 1 million yevro Markazda tahsil oluvchi 145 nafar talabalarning Afg‘oniston tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan shartnoma pullarining 50% ulushini, talabalarning stipendiya pullarini to‘lab berish, 200 nafar afg‘on yoshlarini (*asosan O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi Afg‘oniston fuqarolari orasidan*) 1 yillik kasbga yo‘naltirish va 3 oylik qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkillashtirish va ularni moliyalashtirishni ta’kidlab o‘tdi.

Ushbu o‘quv kurslari quyidagi yo‘nalishlarda tashkillashtirishi rejalashtirilmoqda. Xususan, **1 yillik kurslarda**:

- Qurilish;
- Qishloq xo‘jaligi;
- Hamshiralarni malakasini oshirish;
- Turizm.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, 1 yillik kurslarda asosan qishloq joylarida istiqomat qiluvchi xotin-qizlarni va imkoniyati chegaralangan (*nogiron*) shaxslarni jalb qilish maqsadga muvofiq bo‘lib hisoblanadi.

3 oylik qisqa muddatli o‘quv kurslari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- Qurilish;
- Kran boshqaruvi
- Qishloq xo‘jaligi;
- Hamshiralarni malakasini oshirish;
- Payvandlash;
- Avtomobillarga xizmat ko‘rsatish;
- Issiqxona qurilishi;
- IT sohasida mutaxassislarni tayyorlash.

Ushbu 3 oylik qisqa muddatli kurslarni tamomlagan shaxslarni 1 oy davomida Surxondaryo viloyatida amaliyot o‘tashi rejalashtirilgan.

Shuningdek, yig‘ilish davomida xorijiy mehmonlar tomonidan Markaz uchun Axborot resurs markazi yaratilishi hamda 1 ta mikroavtobus ajratilishi ko‘zda tutilganligi ta’kidlandi.

Ushbu loyiha YeI vakillarining Markazda 3 marotaba tashrifi davomida, o‘quv muassasasi ma’muriyati tomonidan berilgan takliflar asosida amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Uchrashuv so‘ngida Markaz rahbariyati mexmonlarga, qayd etilgan taklif va murojaatlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi rahbariyati bilan kelishgan holda amalga oshirilishini ta’kidladi.





AFG‘ONISTON FUQAROLARINI O‘QITISh TA’LIM MARKAZIDA 2020-2021 O‘QUV YILIDA O‘QUV ISHLARI BORASIDA OLIB BORILGAN ISHLAR

Ushbu o‘quv yilining boshida kerakli buyruqlar rasmiylashtirilib nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni boshlashga markaz tayyor holatga keltirildi. Butun dunyoda bo‘lganidek COVID-19 pandemiyasi sababli talabalar vaqtida mashg‘ulotlarga yetib kelmadilar. Faqatgina 2020 yilning noyabr oyining oxirida mashg‘ulotlar boshlandi.

Yo‘nalishlar bo‘yicha DTS, malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari yetakchi OTM laridan olindi va ayrimlari borasida hamkorlik qilindi. Talabalarga mashg‘ulotlar olib borishga asosan TDTU va TDO‘TAU dan professor-o‘qituvchilar taklif qilindi hamda markazda doimiy faoliyat olib boruvchi o‘qituvchilar jalb etildi. Bu jarayonni amalga oshirishda professor-o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablarga rioya qilishga harakat qilindi.

O‘quv yili davomida tuzilgan “YO‘L XARITA”da belgilangan “SMART” xonalar tashkil etish va 5+1 shaklida o‘quv jarayonlarini tashkil etish masalarari to‘lov kontrakt pulini vaqtida tushmaganligi va talabalar o‘quv yilining boshidan yetib kelmaganligi sababli amalga oshmadi.

Dars mashg‘ulotlari boshlangach o‘quv jarayonlari va amaliyot faoliyati tartibga solindi. Shuningdek, yangi bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi hamda kasb-hunar va qisqa muddatli kurslar tashkil etish bo‘yicha AIRga takliflar berildi.

Markazda ilmiy salohiyatni ko‘tarish va ta’lim tarbiya jarayonlarini sifatini oshirish maqsadida KAFEDRA tuzish bo‘yicha tanlov e’lon qilindi. Lekin e’lon yuzasidan arizalar kelib tushmadi.

Talabalar bilimini nazorat qilish bo‘yicha taklif qilingan “aylanish prinsipi” ga rioya qilindi va imkon darajada haqqoniy baholandi.Talabalarning darsdan tashqari vaqtlarini unumli o‘tkazish maqsadida bir qancha to‘garaklar tashkil qilindi.

Ta’lim sifatini samarali bo‘lishi adabiyotlar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Bu borada katta miqdordagi o‘quv adabiyotlari ya’ni darslik, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv uslubiy majmualar va lug‘atlar keltirildi. Bundan tashqari Markazning barcha yo‘nalishidagi talabalariga to‘rt o‘quv yili davomida foydalaniladigan adabiyotlarning elektron varianlari tashlab berildi.

Markazda bugungi kunda 145 nafar talaba tahsil olmoqda. Markazimizda tahsil olayotgan:

A. O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalari noyabr oyidan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori tomonidan tasdiqlangan reja asosida dars mashg‘ulotlarini o‘tab kelishmoqda. 2020-yilning 23-noyabr oyidan Falsafa 128 soat, dotsent X Xudoyberdiev, o‘qituvchilar S Qo‘lboshev,O Tojiev,

Dinshunoslik 64 soat,o‘qituvchilar Sh.Abdullaev, Sh Allamurodov,A Jo‘raev,

Filologlar uchun matematika 64 soat,o‘qituvchilar F.Xasanov, Z.Bozorov,

O‘zbek tilining amaliy gramatikasi 176 soat,o‘qituvchi X Eshpo‘latova,

O‘zbek dialektologiyasi 194 soat, M.Turdibekov,I Shamsiddinova,

Hozirgi o‘zbek adabiy tili 176 soat, Sh.Bobomurodova, D.Niyozova,

O‘zbek adabiyoti 142soat, K.Mullaxo‘jaeva, S.To‘raeva, B.Oqbo‘taev,

Jahon adabiyoti184 soat, B Xoliqov. X.Eshpo‘latova,

Hozirgi o‘zbek adabiy tili 122 soat, Sh Bobomuratova, I.Shamsiddinova,

Aruz va poetika asoslari 122 soat, A.Dehqonov, S.To‘raeva,

Hozirgi o‘zbek adabiyoti 124 soat, A.Dehqonov, X.Eshpo‘latova, Matnning filologik tahlili 94 soat, M.Turdibekov. D.Niyozova, Xorijiy til 104 soat, M.Xoshimxo‘jaeva, I.Haitovlar Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti va Termiz Davlat universiteti, Toshkent texnika universiteti Termiz filiali, Termiz pedagogika instituti professor o‘qituvchilari tomonidan dars mashg‘ulotlari olib borildi.

Ikkinchi bosqich o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalari tanishuv amaliyotini Termiz tumanidagi 21,17,16 son maktablarda olib borishdi.

B. Yer usti trasport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (Lokomotivlar) yo‘nalishi 2-bosqichida Toshkent transport universiteti rektori tomonidan tasdiqlangan reja asosida quyidagi fanlar o‘tildi.

Rus tili 144 soat, I Xaitov,

Oliy matematika 172 soat, A.Artiqbaev,

Fizika 154 soat, S.Daminov,

Temir yo‘l transport asoslari 208 soat, R.Egamberdiev,

Chizma geometriya va muhandistlik grafikasi 172 soat, N.Axmedov,

Elektrotexnika va elektronika asoslari 214 soat, S Hakimov,

Termodinamika 214 soat, S.Azimov,

konstruksion materiallar 194 soat, J. Nafasaov,

Mashina va nexanizmlar nazariyasi 194 soat, J. Nafasovlar tomonidan o‘tildi. Ushbu o‘qituvchilar Toshkent transport universitetidan jalb etildi. Yer usti trasport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (Lokomotivlar) yo‘nalishi 2-bosqichi talabalari Termiz temir yo‘l “G‘alaba” stansiyasida o‘quv tanishuv amaliyotini o‘tashdi.

Yer usti trasport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (Lokomotivlar) yo‘nalishi 3-bosqichida Toshkent transport universiteti rektori tomonidan tasdiqlangan reja asosida quyidagi fanlar o‘tildi. Mashina va detallari 152 soat,T.Tursunov,

Materiallar qarshiligi 144 soat, I.Mengliev,

Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalari 130 soat,S.Azimov,

Lokomativlarning tuzilishi va loyihalashtirilishi 172 soat, Sh.Jamilov,

Metrologiya va standartlashtirish, o‘zaro almashuvchanlik va sertifikatlashtirish 142 soat,T.Tursunov,

Payvandlash va quyuv ishlab chiqarish 162 soat,T.Tursunov,

Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish, rejalashtirish va avtomatlashtirish 338 soat, J.Yakubov,

Harakat xavfsizligi va tormoz tizimlari 186 soat, J.Abdiraxmonov,

Hayot faoliyati xavfsizligi 124 soat, O.Aliev,


Lokomativlarni ta’mirlash texnologiyasi 64 soat, A.Shoimqulov,

Lokomativlarga texnik xizmat ko‘rsatish asoslari 64 soat, A.Shoimqulovlar tomonidan o‘tildi. Ushbu o‘qituvchilar Toshkent transport universitetidan jalb etildi. (Bundan tashqari “Oliy hamshiralik ishi” akusher gegikolog) yo‘nalishi uchun tashrif buyurgan tinglovchilar 540 soatlik rus tili kursini o‘tgan o‘quv yilidan o‘zlashtirishga o‘lgurmagan 200 soat tamomlashdi va AIR ga qaytib ketishdi.

S. O‘zbekiston Respublikasi va AIR o‘rtasidagi kelishuvga binoan 44 nafar “O‘zbek tilini o‘rganish” kursi tinglovchilari markazda o‘zbek tilini o‘zlashtirishlari, so‘ngra Respublikamizning yetakchi OTM da davlat granti asosida o‘qishni davom ettirishlari lozim edi. Ulardan 41 nafari markazga tashrif buyurishdi va kurs mashg‘ulotlarini davom ettirishmoqda.

305-guruh Termiz Temir yo’l deposida amaliyotda







Markazimizda tahsil olayotgan O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi talabalari 2021-2022 o’quv yilini 6 dekabrdan Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti rektori tomonidan tasdiqlangan reja asosida dars mashg’ulotlarini o’tab kelishmoqda. 2021-yilning 6 dekabr oyidan O’zbek tili tarixi fanidan 18soat ma’ruza dars mashg’ulotini, dotsent M.Turdibekov ,52 soat amaliy mashg’ulotni o’qituvchilar To’rayeva S,Niyozova D,Badiiy tahlil asoslari fanidan 22 soat ma’ruza dars mashg’ulotini professor Qozoqboy Yo’ldoshev,amaliy va seminar mashg’ulotini o’qituvchilar To’rayeva S.Eshpo’latova Xadicha olib bordi.

Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi yo’nalishi talabalari Toshkent Davlat Texnika universiteti rektori tomonidan tasdiqlangan reja asosida dars mashg’ulotlarini o’tab kelishmoqda Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi yo’nalishi 405 guruhida Lokomotivlarni ta’mirlash texnologiyasi

fanidan 54 soat nazariy va 54 soat amaliy dars mashg'ulotini Toshkent Davlar Transport universiteti o'qituvchisi A.Shoimqulov ,306 guruhida Harakat xavfsizligi va tormoz tizimlari fanidan 48 nazariy va 48 soat amaliy mashg'ulotlarni Toshkent Davlat Transport universiteti oqituvchisi S.g.Inogamovlar dars mashg'ulotlarini olib borishmoqda.

ARMning faoliyati, unda professor-o'qituvchilar va talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, moddiy-texnik holati

Axborot - resurs markazi bir vaqtning o'zida 60 nafar talabalarga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega. Axborot-resurs markazi fondida 4615 dona kitob mavjud bo'lib,tabiiy, texnika, qishloq va o'rmon xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy-gumanitar, madaniy va maorif, filologiya fanlari, badiiy kitoblardan iborat.O'zbek, dariy va boshqa xorijiy tillarda nashr etilgan ilmiy,ilmiy-ommaviy,uslubiy,badiiy adabiyotlarning yozma hamda elektron shakllari mavjud.

Axborot-resurs markazida 24 dona kompyuterlar jamlanmasi, simli internet tarmog'iga ulangan.

Markazning elektron kutubxona tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur kutubxonada 25892 dan ortiq kitoblar elektron adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar, darslik va badiiy kitoblar joylashtirildi, shundan 798 tasi audio kitoblar.

2 ta infokiosk uchun o'zbek va dari (afg'on) tillarida dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan va ushbu dasturdagi 5 ta bo'lim ("O'zbekiston ramzlari", "Madaniy meros", "Iftixorlarimiz", "Galereya") ma'lumotlari bilan to'ldirildi.Talabalarning baholari kiritilganm.

Markazga videoterminal qurilmasi va jihozlari o'rnatilib testdan o'tkazildi. Markaz oliy ta'lim muassasalari orqali" Elektron ta'lim tarmog'i"ga ulandi, ushbu tarmoq markaz talabalariga respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasalari elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Axborot – resurs markazida 4 nafar xodim ish olib boradi.

Axborot-resurs markazi mudiri 1nafar

Ilmiy uslubiy va axborot ma'lumot (davriy nashrlar) bo'limi xodimi 1 nafar,

Axborot resurs markaziga axborot kutubxona resurslar bilan xizmat ko'rsatish bo'limi kutubxonachisi 1nafar.

Elektron kutubxonalar kutubxonachisi 1 nafar.

Markaz talabalarini darsda va darsdan tashqari kitob mutoalasini yaxshilash borasida kutubxona fondiga 70 dona yangi avlod adabiyotlari qabul qilib olindi.O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xalqaro Islom akademiyasidan jami 52 dona kitob taqdim etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan markazga 2020 yil 30 turdagi jami 900



dona 79672600.50 (yetmish to‘qqiz million olti yuz yetmish **ikki ming olti yuz so‘m 50 tiyin), 2021 yil 31 turdagi jami 930** dona 68794038.30 (oltmish sakkiz million yetti yuz to‘qson to‘rt ming o‘ttiz sakkiz so‘m 30 tiyin) jami **1488466638.80** (bir yuz qirq sakkiz million to‘rt yuz oltmish olti ming olti yuz o‘ttiz sakkiz so‘m 80 tiyin) darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar taqdim etildi. Markaz direktori O.Ro’ziyev, o‘qituvchi I.Xaitov va markazga Afg‘oniston Respublikasi Balx universitetidan tashrif buyurgan mehmonlar professor Abdulmuhammad Badaxsh, Noser Ahmad Oriyan hamda Balx moliya instituti professori Ahmad Samim Badaxshoniylar 6 jilddan iborat bo‘lgan “29-Mizon O‘zbek tili milliy kuni” nomli maqolalar va she’rlar to‘plamini taqdim etdi. Tuhfa qilingan kitoblar va jurnallar ARMga qabul qilindi , kitoblar taqdimoti o‘tkazildi.

Axborot-resurs markaziga a’zo bo‘lganlar soni jami 232, bundan 145 nafarim talabalardan iborat. “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishidan- 111, “Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (lokomotivlar) yo‘nalishidan – 34.

2021 yilgi ro‘znoma va jurnallarga obuna bo‘lganlar soni 27 kishidan iborat bo‘lib, jami 8902438.0 so’mni tashkil qiladi



Axborot-resurs markazida talabalarning bo‘sh vaqtlari mazmunli va qiziqarli o‘tishi uchun uchrashuvlar, tadbirlar,davra suhbatlari, ma’naviy-ma’rifiy kechalar o‘tkaziladi. Professor va o‘qituvchilar talabalar bilan darsdan tashqari qo‘shimcha vazifalar ustida ish olib borishadi.

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalarining o‘quv dasturi bo‘yicha “Adabiyot o‘qitish metodikasi” darsligi yetishmasligi sababli. Markaz kichik bosmaxonasida kitobning elektron variantidan foydalanib 30 dona kitob nashr qilindi va markaz talabalariga taqdim etildi.

Axborot – resurs markazi tomonidan o‘tkazilgan tadbirlar

1.Buyuk shoh va shoir, olim Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 537 yilligi munosabati bilan ARMda yangi kitoblar taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

2. 8-Mart Xalqaro Xotin qizlar kuni munosabati bilan Markazda “Sen baribir muqaddassan-muqaddas ayol” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbir dasturi va taklifnomasi tayyorlandi

3. Axborot- resurs markaziga sovg‘a qilingan kitoblar taqdimoti





MA’NAVIY-MA’RIFIY YO‘NALIShDA AMALGA OShIRILGAN IShLAR TO‘G‘RISIDA

16.10.2020 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida 14 oktabr kuni Surxondaryo viloyatidan Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universitetiga o‘qishga qabul qilingan birinchi bosqich talabalari uchun tanishuv darslari o‘tkazildi.
Ushbu tashkil etilgan darslar davomida, universitet rektori Sirojiddinov Shuxrat Samariddinovichning talabalarga yo‘llagan video tabrigi, universitet faoliyati haqida tayyorlangan prezentatsiya hamda video roliklar namoyish etildi.
Bundan tashqari, talabalarni universitetda o‘qish qoidalari, pandemiya munosabati bilan tashkil etilgan onlayn-platforma haqida yetarlicha ma’lumot va undan qay tarzda foydalanish haqida amaliy dars hamda seminar-treninglar o‘tkazildi.




16.10.2020 yil. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Surxondaryo viloyati bo‘limi, Termiz davlat universiteti, Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi bilan hamkorlikda 21-oktabr - O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida tahsil olayotgan surxondaryolik 120 nafar talabalar ishtirokida so‘z mulki sultoni Alisher Navoiy hazratlari monumenti joylashgan madaniyat bog‘ida "Ona tilim - faxrim, iftixorim" mavzusida ma’naviy-ma’rifiy davra suhbati tashkil etildi.







12.11.2020 yil. “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash”.
Termiz tumanida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlari davom etmoqda.
Termiz tumanidagi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida “Sharof Rashidov” mahallasi aholisi uchun tashkil etilgan tadbirda tumanning taniqli shoirlari, faol nuroniylari, san’atkorlar, iqtidorli yigit-qizlar ishtirok etdi.





07.12.2020 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.





10.12.2020 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida faoliyat olib borayotgan to‘garak rahbari O‘raltosh Hurramova Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Jahon hunarmandlar Kengashi-Osiyo tinch okeani mintaqasi 38-bosh Assambleyasi doirasida o‘tkazilgan ko‘rik tanlovi respublika bosqichining turli millat vakillari o‘rtasida yeng yaxshi “Usta-shogird” maktabi yo‘nalishida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.





14.01.2021 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining 3 bosqichida tahsil olayotgan iqtidorli talabalardan iborat bo‘lgan badiiy guruh Termiz tumani 16 umumiy o‘rta ta’lim maktabi hamda Termiz shahridagi 20 umumiy o‘rta ta’lim maktabi jamoasi bilan hamkorlikda14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan «Mardlar qo‘riqlaydi Vatanni» shiori ostida bo‘lib o‘tgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirda o‘zlarining kuy-qo‘shiqlari bilan ishtirok etdilar.







28.01.2021 yil. “NAZM VA NAVO”
Joriy yilning 28 yanvar kuni Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filialida 9-fevral – buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag‘ishlangan kecha bo‘lib o‘tdi.
Tadbirda Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining Hirotlik talabalar hamda professor-o‘qituvchilar ishtirok etdilar.

30.01.2021 yil. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 25 yanvardagi qaroriga asosan Mustaqil O‘zbekistonning asoschisi, buyuk davlat arbobi, O‘zbekiston Qahramoni O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti marhum Islom Karimovning tavallud topgan kunlari munosabati bilan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida "Islom Karimov - mustaqil O‘zbekistonning asoschisi" mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

06.02.2021 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan markazning «UZAF» hamda Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filialining «ZIYO» jamoasi o‘rtasida sportning futbol turi bo‘yicha musobaqa o‘tkazildi. Ushbu musobaqada Afg‘onistonlik yoshlar 4-2 hisobi bilan g‘olib bo‘ldilar. Musobaqa ishtirokchilariga markaz rahbariyati tomonidan esdalik sovg‘alari va faxriy yorliqlar topshirildi.





NAVOIYXONLIK TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA

07.02.2021 yil. Har yilning fevral oyi mamlakatimizda Navoiyni o‘rganish oyligi sifatida o‘tadi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, ayni shu oyda ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda Navoiyxonlik tadbirlari, adabiy va badiiy kechalar o‘tkaziladi. Shunday tadbirlardan biri Nizomiy nomidagi TDPU Termiz filialida ham bo`lib o`tdi.Unda Filial talabalari hamda mehmon sifatida Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining talabalari, professor o`qituvchilar ishtirok etishdi.









08.02.2021 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag‘ishlangan adabiy-badiiy kecha o‘tkazildi.





BUYUK MUTAFAKKIR SIYMOSIGA YUKSAK EHTIROM



09.02.2021 yil. Termiz shahri markazida qad rostlagan ulug‘ mutafakkir, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy haykali poyiga davlat va jamoat tashkilotlari, ziyolilar, shoir va yozuvchilar, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari yuksak ehtirom ramzi sifatida gulchambarlar qo‘yishdi.

Shunisi alohida e’tiborga loyiqki, ushbu muhim tadbirda Afg‘onistonlik talabalar ham faol ishtirok etishdi. Jumladan, markazning «O‘zbek tili va adabiyot» yo‘nalishi 2 bosqich talabasi Shekibo Samadi so‘zga chiqib, Alisher Navoiyning hayot yo‘li, she’r va g‘azallar ijrosi bilan tadbir ishtirokchilarida chuqur ijobiy ta`surot qoldirdi.

Afg‘onistonlik talaba-yoshlarni boy madaniyatimiz va tarixiy merosimiz bilan yaqindan tanishtirish maqsadida “Muzeylarga tashrif” aksiyasi doirasida kuni kecha markazning "O‘zbek tili va adabiyoti" yo‘nalishi talabalari, professor-o‘qituvchilari hamda amaliy san’at to‘garagi rahbarlari tomonidan Surxondaryo viloyati Termiz davlat muzey-qo‘riqxonasiga tashrif uyushtirildi.





12.02.2021yil. "Quvnoqlar va zukkolar" telebellashuvining guruh bosqichida Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining "UZAF" hamda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Onlayn" jamoalari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan bellashuvda "UZAF" jamoasi g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

14.02.2021 yil. Buyuk shoh va shoir, olim Zahiriddin Muhammad Boburning 538 yillik tavallud kuni munosabati bilan Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida ma’naviy-ma’rifiy hamda badiiy-adabiy kecha o‘tkazildi.





13.02.2021 yil. "Ikki millat e’zozidagi ajdodlarimiz" tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Respublikaning barcha viloyatlarida yosh kitobxon tanlovining tuman (shahar) bosqichi bo‘lib o‘tdi. Yosh kitobxon tanlovida ishtirok etish istagini bildirgan Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida ta’lim olayotgan yoshlarimiz:











Bizlar shunday tanlovda qatnashishni xohlardik - degan murojaatlarini inobatga olgan holda yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyat boshqarmasi boshlig‘i Sh.Olimov tomonidan Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida fevral oyi ,"Buyuk ajdodlar merosini o‘rganish" oyligi munosabati bilan "Ikki millat e’zozidagi ajdodlarimiz" tanlovi tashkil etildi.

15.02.2021 yil. BESH TASHABBUS - YOSHLAR ISTIQBOLI Surxondaryo viloyati Termiz shahrida joylashgan Markaziy Osiyodagi yagona "Arxeologiya muzeyi" maydonida "Besh tashabbus- yoshlar istiqboli" va buyuk sarkarda, shoir bobokalonimiz Z.M.Boburning 538 yillik tavallud ayyomiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.







18.02.2021 yil. “5 TA MUHIM TASHABBUS” AMALDA Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining yo‘nalish va guruhlar kesimida sportning futbol turi bo‘yicha «Direktor kubogi» musobaqalariga start berildi.

20.02.2021 yil. "Sport kunlari" doirasida Surxondaryo viloyat futbol assotsiatsiyasi jamoasi Termiz tumani hududida joylashgan Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida Afg‘oniston talabalari bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatish, ommaviy futbolni rivojlantirish maqsadida mini futbol uchrashuvi tashkil etildi.







22.02.2021 yil. O‘zbekiston - ham sayohat, ham ziyorat makoni
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va Surxondaryo viloyati hokimining qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekistonning YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan madaniy meros ob’ektlari va davlat muhofazasiga olingan yodgorliklar to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotlarga yaqindan ega bo‘lish maqsadida, markazning “O‘zbek tili va adabiyot” ta’lim yo‘nalishi talabalari hamda ishchi xodimlar uchun Qashqadaryo va Samarqand viloyatlariga sayohat tashkil etildi.





01.03.2021 yil. BAHOR KUYChISIGA EHTIROM
O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida buyuk o‘zbek shoirasi Zulfiya Isroilova tavalludining 106 yilligiga bag‘ishlangan “Bahor keldi seni so‘roqlab” nomli adabiy-badiiy kecha bo‘lib o‘tdi. Tadbirda markaz jamoasi, AQShning xalqaro ta’lim Kengashi O`zbekistondagi direktori Uilyam Oroark, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Termiz filialining iqtidorli talabalari va yosh ijodkorlar ishtirok etishdi.






03.03.2021yil. "Quvnoqlar va zukkolar" telebellashuvining guruh bosqichida Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining "UZAF" hamda Toshkent davlat pedagogika universiteti Termiz filialining “A’lo” jamoalari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan bellashuvda "UZAF" jamoasi g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.




05.03.2021 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5ta muhim tashabbusnining 2 bandi ijrosini ta’minlash hamda talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida, sportning futbol turi bo‘yicha “Direktor kubogi” musobaqasi o‘tkazildi. Ushbu musobaqada barcha o‘yinlar shiddatli va murosasiz vaziyatlarga boy bo‘ldi. Yakunda “O‘zbek tili va adabiyot” talim yo‘nalishi 201 va 204 guruh jamoalari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan final o‘yinda 201-guruh talabalari 2-1 hisobida g‘oliblikni qo‘lga kiritdilar.











05.03.2021 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida 8-mart “Xalqaro xotin-qizlar kuni” bayrami munosabati bilan markazda faoliyat yuritib kelayotgan ayol o‘qituvchi va xo‘jalik bo‘limi xodimalari o‘rtasida sportning voleybol, stol tennis, shaxmat va shashka turlari bo‘yicha sport musobaqalari o‘tkazildi.





15.03.2021 yil. Termiz shahridagi "Amudaryo" sog‘lomlashtirish oromgohida Surxondaryo viloyat futbol assotsiatsiyasi hamda Viloyat kasaba yushmalari tashkilotlari birlashmasi bilan hamkorlikda "Viloyat kasaba uyushmasi kubogi" uchun oliy talim muassasalari o‘rtasida mini futbol musobaqasi o‘tkazildi.



Musobaqa natijasiga ko‘ra:

🥇 Toshkent Agrar universiteti Termiz filiali futbol jamoasi.

🥈 TerDu futbol jamoasi.

🥉 O‘zAF o‘quv markazi qo‘lga kiritishdi.

17.03.2021 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5ta muhim tashabbusnining 2 bandi





ijrosini ta’minlash hamda Navro`z umumxalq bayrami munosabati bilan Surxondaryo viloyatidagi mavjud OTMlar o‘rtasida sportning futbol turi bo‘yicha “Direktor kubogi” musobaqasi o‘tkazildi. Ushbu musobaqada barcha o‘yinlar shiddatli va murosasiz vaziyatlarga boy bo‘ldi. Yakunda TerDu jamoasi 1-o‘rin, TDAU Termiz filiali jamoasi 2-o‘rin hamda Markazning "UZAF” jamoasi 3-o‘rinni egalladilar.



17.03.2021 yil. Surxondaryo viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida "Navro‘z" umumxalk bayrami munosabati bilan ayol o‘qituvchi va xodimlar o‘rtasida sportning Voleybol turi bo`yicha Markaz Direktor kubogi musobaqasi o‘tkazildi.



19.03.2021 yil. HAR KUNINGIZ NAVRO‘Z BO‘LSIN!

Viloyatda Navro‘z bayramini umumxalq sayli sifatida keng nishonlash maqsadida Termiz tumanidagi Otchopar maydoni farzandlarini saylga, Navro‘z shodiyonalaridan bahramand bo‘lishga yetaklab kelgan oilalar bilan gavjum bo‘ldi.

Bayram sahnasi uzra yangragan qo‘shiqlar, badiiy jamoalarning chiqishlarida milliy qadriyatlarimiz, sumalak sayli, bahor sog‘inchi o‘z ifodasini topdi. Navro‘z udumlari, an’analari, ko‘klam kelishi bilan bog‘liq odatlarimiz sahna ko‘rinishlari orqali aks ettirildi.





31.03.2021 yil. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning ijrosini ta’minlash maqsadida, Termiz tuman prokuraturasi bilan hamkorlikda Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida bo‘sh ish o‘rinlari mexnat yarmarkasi hamda sportning futzal, shaxmat shashka turlari bo‘yicha "Prokuror kubogi" musobaqalari o‘tkazildi.



20.04.2021yil. "Quvnoqlar va zukkolar" telebellashuvining guruh bosqichida Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazining "UZAF" hamda Termiz davlat universitetining “Surxon yoshlari” jamoalari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan bellashuvda "UZAF" jamoasi g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

24.04.2021yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi Kotibiyat bosh maslahatchisi Shotursunova Nodira Nasirovna, Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a’zosi Abdijabbarova Nazlimxan Abdijabbarovna, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha vazir maslahatchisi Isakova Gullola Abdumalikovna hamda Surxondaryo viloyati Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari Mavluda Umarjonovna Qobulova tashrif buyurdilar. Mehmonlar dastlab, markaz faoliyati, dars jarayonlari, to‘garaklar faoliyati, kutubxona va o‘quv laboratoriyalar bilan yaqindan tanishdilar.







25.04.2021yil. O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiya tomonidan Surxondaryo viloyatidagi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi faoliyati o‘rganildi. O‘rganish davomida ushbu muassasada tahsil olayotgan afg‘on yoshlari bilan muloqot qilindi. Shuningdek, Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi talabalari uchun Sariosiyo tumanidagi “Sangardak” sharsharasiga sayohat tashkil etildi.






26.04.2021 yil. Shoir Muhammad Yusuf tavalludining 67 yilligi munosabati bilan Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida “Yuraklardan joy olgan shoir” nomli adabiy-badiiy kecha bo‘lib o‘tdi.

Tadbirni markaz direktori O.Ro’ziyev shoirning qisqa va mazmunli hayoti, o‘ziga xos sodda va xalqchil ijodi yuragimizdan chuqur o‘rin olganligini ta’kidladi.

Tadbir davomida Muhammad Yusuf qalamiga mansub ona yurtni, Vatanni, bag‘rikeng xalqimizni tarannum etuvchi she’rlari hamda ushbu she’rlarga bastalangan kuy-qo‘shiqlar ishtirokchilar tomonidan ijro etildi.

Adabiy-badiiy kechada faol ishtirok yetgan talaba va o‘quvchilar markaz direktori tomonidan faxriy yorliq va kitoblar bilan taqdirlandi.





27.04.2021 yil. TINGLOVChILARNING ILK IJODIY KEChASI.
Yaqindagina Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tinglovchi sifatida tashrif buyurgan 41 nafar afg‘onistonlik yoshlar ishtirokida ilk adabiy-badiiy kecha bo‘lib o‘tdi.





04.05.2021 yil. O‘zbek romanchiligining asoschisi, vatanparvar adib Abdulla Qodiriy xotirasiga ehtirom ko‘rsatish, milliy adabiyotimiz rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini keng targ‘ib etish, Abdulla Qodiriy tavalludining 127 yilligiga bag‘ishlab hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha beshta muhim tashabbusi doirasida joriy yil 3 may kuni Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida teatr tomoshasi tashkil etildi.







08.05.2021 yil. Afg‘onistonlik yoshlar - Termiz shahridagi “Amudaryo” xalqaro bolalar oromgohida “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” g‘oyasi asosida o‘tkazilgan yoshlar festivalida ishtirok etdilar.

09.05.2021 yil. Markaz jamoasi hamda afg‘onistonlik talabalar 9 may – Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 76 yilligi bayrami munosabati bilan o‘tkazilgan bayram tadbirida.



25.05.2021 yil. Termizda O‘zbekiston - Afg‘oniston biznes-forumi o‘z ishini boshladi. Ushbu biznes forumda bir guruh markaz talabalari vohamizga tashrif buyurgan Afg‘onistonlik mehmon va tadbirkorlarga tarjimonlik qildilar.





25.05.2021 yil. Forum doirasida Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida Afg‘oniston Islom Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari M.Sh.Korgar, shu mamlakatning yurtimizdagi elchixonasi vakillari va ishbilarmonlar bo‘ldi.

Uchrashuvda O‘zbekiston tomonidan mamlakatimizning Afg‘onistondagi elchisi Yo.Shodmonov, O‘zbekiston Respublikasining tashqi ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari F.Arziev, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri o‘rinbosari S.Buzrukxonov ishtirok etdilar.







31.05.2021 yil. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri Abduqodir Toshqulov Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida bo‘ldi.
Uchrashuv davomida, vazir markazda talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar, o‘quv-uslubiy va moddiy texnik bazasini yanada rivojlantirish hamda markaz faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha mas’ullarga tegishli ko‘rsatmalar berdi







09.06.2021 yil. TARG‘IBOT TADBIRI BO‘LIB O‘TDI
Davlatimiz rahbarining joriy yil 1-2 iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida viloyatni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini

ta’minlash borasida belgilangan ustuvor vazifalarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida joylarda targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilmoqda.
Bugun, Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida Termiz tumani 2-sektor mahalla vakillari uchun targ‘ibot tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbirda sektor rahbari tuman prokurori, Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati, senator Arziqul Soatov, markaz direktori O.Ro‘zyiev, tuman Kengashi kotibiyati, deputatlar, mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari, nuroniylar, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.





10.06.2021 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida faoliyat olib borayotgan to‘garak rahbari O‘raltosh Hurramova O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun "Tashabbus-2021" ko‘rik-tanlovining Surxondaryo viloyati bosqichida "Yilning eng yaxshi hunarmandi" yo‘nalishida g‘olib deb topildi va 2-darajali diplom bilan taqdirlandi.







12.10.2021 yil. Surxondaryoda **"Uch avlod uchrashuvi"** bo‘lib o‘tmoqda. Ushbu uchrashuvda afg‘oniston yoshlari ham faol ishtirok etmoqdalar.





21.10.2021 yil. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 32 yilligi munosabati bilan adabiy kechalar, davra suhbatlari, bayram tadbirlarida afg‘onistonlik tadabalar faol ishtirok etdi.





12.11.2021 yil. “YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASI "MARKAZ" MISOLIDA.

Bugun, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Termiz tumanida joylashgan Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markazi hududida butasimon ko’chatlar va boshqa turdagi manzarali daraxt kalamchalari va ko‘chatlarini ekish ishlari olib borildi.







17.11.2021 yil. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markazi 4 yoshga to‘ldi

18.11.2021 yil. “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni o‘z egalariga topshirildi

18 noyabr – O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i qabul qilingan bayrami kuni arafasida bir guruh viloyat faollari «Ma’naviyat fidoyisi» ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.



Ushbu tantanali marosimda viloyatning bir guruh vakillari qatorida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi direktori Oybek Abdimo‘minovich Ro‘ziev Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni hamda faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

03.12.2021 yil. AFG‘ONISTONLIK TALABALAR KUTIB OLINDI.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Termiz tumanidagi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida tahsil olayotgan yigit-qizlar “Xayraton” chegara-bojxona postida kutib olindi.



07.12.2021 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markazida 8-dekabr O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29 yilligi munosabati bilan “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi” nomli davra suhbati bo‘lib o‘tdi.





10.12.2021 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markazida 10-dekabr O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining 29 yilligi munosabati bilan **“Madhiya - istiqlol va milliy g‘urur timsoli”** mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.




10.12.2021 yil. Bugun Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markazining “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 3-bosqichda tahsil olayotgan Shekiba Samadining “Kitob insonning abadiy yoridir” hamda “Ijod zahmatli yo‘ldir” nomli kitoblari taqdimoti bo‘lib o‘tdi.





19.12.2021 yil. Afg'onistonlik yoshlar, «Surxon milliy qadriyatlar beshigi» shiori ostida bo'lib o'tgan yoshlar forumda ishtirok etishdi.





22.12.2021 yil.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog’liqni saqlash masalalari qo’mitasi raisi Senator Odiljon Iminov Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazida bo‘lib, markaz faoliyati bilan yaqindan tanishdi.



29.12.2021 yil. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markazida **“YIl SARHISOBI”** hamda **“E‘TIROF-2021”** tanlovi g‘oliblarini taqdirlashga bag‘ishlangan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.



Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markaziga AQShning O'zbekistondagi elchixonasi Jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha bo'limi boshlig'i A.L.Sallivan tashrifi 11.02.2021



Xalqaro taraqqiyot agentligi "USAID"ning O`zbekistondagi missiyasi iqtisodiy rivojlanish bo`limi boshlig`i Skott Xedland Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta'lim markaziga tashrifi 25.02.2021




Janubiy Koreya Respublikasining KOICA xalqaro tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasi volontyorlar dasturi bo‘yicha menedjer Pak Xeminning Markazga tashrifi 07.04.2021














2021 yilning 17-18 may kunlari Markazda Germaniyaning "GIZ" xalqaro tashkiloti tomonidan tashkillashtirilgan "Mamuriy tartib-taomillar va mamuriy sud ishlarini yuritish " mavzusida seminardan lavhalar















UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade, BMT Markazi Osiyo qochoqlarni himoya qilish tashkilotining rahbarining o'rinbosari Dumitru Lipkanularning Markazga tashrifi 09.07.2021



Rossiya "Iqtisodiyot oliy maktabi"ning markaz rahbari Bordachyev Timofey Vyacheslavovich va Moskva davlat xalqaro aloqalar universiteti proffessori Sofranchuk Ivan Alekseevichlarning Markazga tashrifi 17.07.2021



Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga “Diplomatic World” jurnalining menedjeri
Alberto Turkstraning tashrifi 22.07.2021















Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta’lim markaziga Germaniya Federativ Respublikasining
Welt Trends jurnalining muhbiri Hubert Thielickening tashrifi
















Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta'lim markaziga Germaniya Federativ Respublikasining ARD teleradiokompaniyasi muhbiri Vetsel Birgit tashrifi



Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta'lim markaziga Hindiston Respublikasining India Foundation tashkiloti direktori Bansal Alok va Hindiston Dipige New Dehli Political Group vakili Stobdan Punchoklarning tashrifi





Afg’oniston fuqarolarini o’qitish ta’lim markazi Omaviy axborot vositalari nigohida
Termizda tahsil olgan afg’onistonlik yoshlar vataniga qaytdi
@AmerikaOvozi
OYBEK RO’ZIYEV
AFG’ONISTON FUQAROLARINI O’QITISH TA’LIM MARKAZI DIREKTORI


Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta’lim markaziga
Polshalik Adam Sauer va Vengerialik Kristina Katonalarning tashriflari

Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta'lim markaziga Rossiyaning "Kommersant" gazetasi muhbiri Kirill Krivosheev tashrifi














Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta'lim markaziga Franciyaning "Le MOND" nashiri muhbiri Emmanuel Grinzmanning tashrifi








Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta'lim markaziga Yoponiya Universiteti professori Shimizu Manabu tashrifi














Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazining o'quv jarayonidan lavhalar

















Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta'lim markaziga Yevropa Ittifoqi komissiyasining bo'lim boshlig'i S. Rinaldi boshchiligidagi delegatsiyaning tashrifi 01.11.2021















Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta'lim markaziga Slovakiya davlati elchisi Yan Borining tashrifi 25.11.2021













Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta'lim markaziga Yevropa Ittifoqining
O'zbekistondagi elchisi Sharlotta Adrian, UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari
Munir Mamedzade tashrifi 15.12.2021
XUSH KELIBSIZ,
AFG'ONISTONLIK DO'STLARIMIZ!


AFG`ONISTON FUQAROLARINI O`QITISH TA'LIM
MARKAZI FAOLIYATIDAN LAVHALAR

«O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi» esdalik ko‘krak nishonlari va “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganlar.














O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Afg’oniston fuqarolarini o’qitish ta’lim markazi 4 yoshda.











